

УДК: 332.1:338.43

D.Sh.Yavmutov

BuxDU professori, i.f.d.

Sh.Shoyimardonkulova

Toshkent shahridagi Xalqaro Vestminster universiteti talabasi

MINTAQANI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA QISHLOQ XO‘JALIGI SALOHİYATIDAN SAMARALI FOYDALANISH

Annotatsiya: maqolada mintaqani ijtimoiy-iqtisodiy barqaror rivojlantirishda hududning qishloq xo‘jaligi salohiyatidan samarali foydalanish borasida fikr yuritiladi. Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarish ustun hududlarda iqtisodiyot tarmoqlarining barqaror rivojlanishida agrar sector muhim ahamiyat kasb etishi asoslangan. Buxoro viloyati misolida qishloq xo‘jaligini oqilona tashkil etish va yuritish evaziga mintaqaning barqaror rivojlanishiga erishish ko‘rsatib o‘tilgan.

Аннотация: В статье рассматривается эффективное использование аграрного потенциала региона для устойчивого социально-экономического развития региона. Обосновывается, что аграрный сектор играет важную роль в устойчивом развитии отраслей экономики регионов с высоким уровнем сельскохозяйственного производства. На примере Бухарской области показано, что устойчивое развитие региона может быть достигнуто за счет рациональной организации и ведения сельского хозяйства.

Abstract: This article examines the effective use of the region's agricultural potential for sustainable socioeconomic development. It argues that the agricultural sector plays a vital role in the sustainable development of economic sectors in regions with high levels of agricultural production. Using the example of the Bukhara region, it demonstrates that sustainable regional development can be achieved through the efficient organization and management of agriculture.

Kalit so‘zlar: mintaq, qishloq xo‘jaligi, barqaror rivojlanish, qishloq xo‘jaligi salohiyati, samaradorlik, oziq-ovqat xavfsizligi, ekologiya, suv iste‘moli.

Ключевые слова: регион, сельское хозяйство, устойчивое развитие, сельскохозяйственный потенциал, эффективность, продовольственная безопасность, экология, водопотребление.

Key words: region, agriculture, sustainable development, agricultural potential, efficiency, food safety, ecology, water consumption.

Kirish. XX asrning oxirida va XXI asrning boshida qishloq xo‘jaligini yuritishda rivojlangan mamlakatlarda sanoat usulida amalga oshirilgan bo‘lsa, rivojlanayotgan mamlakatlarda barqaror bo‘lmagan usulda rivojlangan. Hozirda ham ko‘pgina mamlakatlarda qishloq xo‘jaligini yuritishning ushbu usullari amal qiladi. Sanoat usulida qishloq xo‘jaligini yuritishning avfzal tomonlaridan eng muhimi – bunda ko‘plab miqdorda mahsulot yetishtirilganligi bois, bu mahsulotlarning narxi past bo‘lgan. Biroq hozirda tabiiy resurslar tobora kamayib borayotgan, atrof muhit muhofazasi muammosi tobora keskinlashayotgan, insonlar nisbatan sog‘lom ovqatlanish tarziga o‘tayotgan davrda qishloq xo‘jaligi yuritishning ushbu usuli davr talabiga javob bera olmay qolmoqda. Chunki sanoatlashgan usuldagi qishloq xo‘jaligi yuritishda tuproqning, suvning va atmosferaning ifloslanishi, o‘simliklarning turli ximiyaviy vositalar bilan ishlanishi natijasida mahsulotlarning ekologik sof emasligi, atrof-muhitning ifloslanishi, issiqxona gazlarining ko‘payishi kabi muammolar yuzaga keladi. Qishloq xo‘jaligini nobarqaror usulda rivojlantirish atrof muhit va tabiatga har yili o‘rtacha 3 trln. AQSh dollari miqdorda zarar yetkazadi¹.

¹ Руководство по устойчивому ведению сельского хозяйства для новичков.

<https://www.unep.org/ru/novosti-i-istorii/istoriya/rukovodstvo-po-ustoychivomu-vedeniyu-selskogo-khozyaystva-dlya-novichkov>.

Aksariyat mamlakatlar yashil iqtisodiyot tamoyillarini joriy qilgan holda iqtisodiyotning qator tarmoqlarida, jumladan, qishloq xo'jaligida ham barqaror xo'jalik yuritish usullarini tanlashmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi. N.R. Asadullinaning "Sustainable development of agriculture in our country and foreign experiences" ("Mamlakatda qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirish va xorijiy tajriba") nomli asarida qishloq xo'jaligining asosiy vazifalaridan biri mamlakatning o'sib borayotgan talabini qondirishdir kelajakda qishloq xo'jaligi mahsulotlari. Maqolada uni yanada rivojlantirish va takomillashtirish bo'yicha g'oyalar ta'kidlangan fermer xo'jaliklarining samaradorligi va bu boradagi yangi texnologiyalar, xorijiy tajriba va innovatsiyalarning ahamiyati qishloq xo'jaligining rivojlanishi va barqarorligi.

Q.X.Xolbo'tayev – "Qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish asoslari" nomli asarida qishloq xo'jaligida zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, ilm-fan yutuqlarini ishlab chiqarishga tadbiq etish masalalari yoritilgan. Muallif qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish orqali hududiy iqtisodiyotning barqarorligini ta'minlash mumkinligini asoslaydi. Bu asar mintaqani rivojlantirishda agrar salohiyatdan foydalanish konsepsiyasiga nazariy asos bo'la oladi.

A. Toshqulovning "Yer resurslaridan foydalanishning iqtisodiy samaradorligi" mavzuli asarida yer resurslaridan foydalanishning iqtisodiy jihatlari tahlil qilinadi. Mintaqalarda mavjud agrar salohiyatni baholash, yerga egalik va foydalanish shakllarining samaradorligini oshirish mavzusi muhim o'rin olgan. Asarda barqaror rivojlanishga erishish uchun resurslardan oqilona foydalanish zarurligi ilmiy asosda yoritilgan.

Birlashgan millatlar tashkilotining FAO (Food and Agriculture Organization) tuzilmasining "Sustainable Agriculture and Rural Development" hisoboti nashr qilingan bo'lib, ushbu sharhda xalqaro tashkilotning hisobot va tavsiyalarida barqaror qishloq xo'jaligi konsepsiyasi, ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy omillar o'rtasidagi muvozanatni saqlash masalalari ko'rib chiqiladi. Mintaqalarni barqaror rivojlantirishda ekologik barqarorlikka katta urg'u berilgan. Bu adabiyot mavzuga xalqaro nazar bilan yondashish imkonini beradi.

G'. Jo'rayevning "Agroklastlar: mintaqaviy rivojlanishning yangi modeli" nomli asarida agroklastlar tizimi orqali hududlarda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini muvofiqlashtirish, logistika, qayta ishlash va eksport tizimlarini yaxlit holda rivojlantirish g'oyalari ilgari surilgan. Barqaror rivojlanish uchun innovatsion yondashuv sifatida agroklast konsepsiyasi tahlil qilingan. Mavzu doirasida amaliy yechimlarni taklif etadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot jarayonida mavzu yuzasidan O'zbekiston Respublikasining qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qaror va farmonlari, asarlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy sohalaridagi taniqli olimlarning ilmiy asarlari, ularning mazmun, mohiyati o'rganilib, mavzuni ochib berishda mavjud ko'rsatkichlar statistik tahlil qilindi. Shu bilan birga, tadqiqot jarayonida mavzuga oid statistik ma'lumotlar va nazariyalarni o'rganishda mantiqiy fikrlash, ilmiy mushohada, tizimli yondashuv, statistik hamda qiyosiy tahlil kabi usullari qo'llanilgan.

Tahlil va natijalar. Barqaror qishloq xo'jaligi hozirda ko'plab hududlar, mamlakatlar tomonidan kelajak rivojlanish modeli sifatida tanlanmoqda va o'zlarining bu boradagi strategiyalarini ishlab chiqishmoqda. Muallif ham O'zbekistonda mintaqalarda yashil iqtisodiyotga o'tish sharoitida qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirishning maqbul yo'li sifatida barqaror qishloq xo'jaligini tavsiya qiladi.

Barqaror qishloq xo'jaligini yuritishda mahsulotlarga sarflanayotgan energiya sarfi 56 foizga kamayadi, bir gektar maydonga nisbatan issiqxona gazlarining chiqishi 64 foizga pasayadi, maydon birligida bioxilma-xillik ortadi. BMTning oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi bo'yicha tashkiloti (FAO) ma'lumotlari bo'yicha chorva hisobiga yillik dunyo issiqxona gazlarining 15 foiz miqdori to'g'ri keladi. Bu raqam dunyo avtomobillari, yuk tashuvchi kemalar va samalyotlaridan chiqayotgan issiqxona gazlari chiqindisi miqdoriga teng¹.

Qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirish asosida qishloq xo'jaligining tarnsformatsiyasi turadi. Qishloq xo'jaligi tarnsformatsiyasi masalalari 19-20 asrlardan boshlangan bo'lsada, hozirgi

¹ Руководство по устойчивому ведению сельского хозяйства для новичков.

<https://www.unep.org/ru/novosti-i-istorii/istoriya/rukovodstvo-po-ustoychivomu-vedeniyu-selskogo-khozyaystva-dlya-novichkov>.

davrdan transformatsiyaning asosida yashil iqtisodiyotga o'tish masalalari turadi. Dunyo mamlakatlarining oziq ovqatga bo'lgan o'sib borayotgan talabini qishloq xo'jaligini transformatsiyasi orqali qondirishning texnik imkoniyatlari mavjud. Muallif O'zbekistonda yuzaga kelgan vaziyatni inobatga olib, yashil iqtisodiyotga o'tish sharoitida mintaqalar qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirishning eng birlamchi va maqbul yo'nalishlari sifatida quyidagi 4 ta yo'nalishni samarali tashkil etish va amalga oshirishni tavsiya qiladi:

Birinchidan, dunyo aholisining ovqatlanish ratsioni tarkibi o'zgarib borayotgan, kun sayin sog'lom turmush tarzi keng ommalashib borayotgan sharoitda oziq ovqat xavfsizligi va ekologik sof qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqarishni ko'rsatadi.

Ikkinchidan, an'anaviy, monokultura usulidagi qishloq xo'jaligi yuritishdan, chorvachilik bilan muvozanatlashgan, tuproq va ekosistemalarning barqaror boshqaruviga, almashlab ekishga, bioxilma-xillikka asoslangan, innovatsion qishloq xo'jaligiga tez va keng qamrovli tarzda o'tish talab etiladi. Ayrim davlatlar hozirda qishloq xo'jaligini regenerativ usullarda rivojlantirishga o'tishmoqda.

Uchinchidan, yerdan foydalanishni oqilona tashkil etish talab etiladi. Tuproq muhofazasi orqali yerdan foydalanishni samarali tashkil maqsad qilinadi. O'zbekiston va uning mintaqalari sharoitida yerdan samarali foydalanish, ularni muhofaza qilish, unumdorligini oshirishning, shuningdek, iqlim o'zgarishi salbiy ta'sirlarining oldini olishda eng muhim omil sanaladi. Tabiatni muhofaza qilish bo'yicha Global kelishuvda Yer sharining 30 foiz maydoni muhofaza hududi sifatida, yana 20 foizi iqlimni barqaror saqlashga ko'maklashish maydoni sifatida saqlash kelishilgan.

To'rtinchidan, mamlakatda suv resurslaridan oqilona va samarali foydalanishni keng va tezkor joriy qilish. Chunki agrar tarmoq va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlovchi sanoat tarmoqlari birgalikda jahonda eng katta suv iste'molchi tarmoq sanaladi.

Jahon agar tarmog'i 6 trln. AQSh dollar miqdorida mahsulot ishlab chiqarishi bilan birga, jahon suv iste'molining 70 foizini o'ziga jamlagan holda kelgusida suv tanqisligi riskiga eng ko'p duchor bo'luvchi soha sanaladi¹.

Muallif 4- yo'nalish sifatida suvdan oqilona foydalanishni tavsiya qilishiga yana bir muhim sabab, O'zbekistonda qishloq xo'jaligi suv iste'molining 80 foizdan ortig'i to'g'ri keladi va suv eng ko'p isrof bo'layotgan, samarasiz ishlatilayotgan soha sanaladi. Shu sababdan qishloq xo'jaligini, shu orqali mintqaning barqaror rivojlanishini ta'minlashda suv resurslarining samarali va oqilona ishlatilishi O'zbekiston Respublikasi, ayniqsa, suv tanqisligi kuchayib borayotgan Buxoro viloyatida asosiy manba sifatida tavsiya qilinadi.

Jahon suv resurslari instituti ma'lumotlariga ko'ra O'zbekiston suv stressiga moyil bo'lgan 25 ta davlatlar qatoriga kiradi. 2022 yilda suv stressi indeksi bo'yicha O'zbekiston 3,82 ko'rsatkich bilan 25 o'rinda turgan. Dunyo aholisining suv iste'moli o'rtacha aholi jon boshiga 24600 m³/kishiga teng bo'lgan sharoitida, O'zbekistonda bu raqam 1447 m³/kishiga teng. Bu raqam 2030 yilga borib 1075 m³/kishiga tushishi prognoz qilingan².

Muallif mintaqalarda suvdan foydalanishni oqilona va samarali tashkil etishning 2 ta asosiy yo'nalishini taklif qiladi: 1) barcha hududlarda to'liq ravishda suvni tejovchi texnologiyalarni joriy qilish va ularni samarali ishlatish; 2) suv ishlatilishi natijasida yuzaga kelayotgan chiqindilar – oqava suvlarni to'liq qayta ishlashni joriy qilish, hududda suv iste'molining yopiq siklini shakllantirish. Har ikkala yo'nalishda ham suvdan foydalanishda noan'anaviy va innovatsion usullar va texnologiyalardan foydalanish shart.

O'zbekistonda birinchi yo'nalishda qator ishlar amalga oshirilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 1 martdagi PQ-144-sonli "Qishloq xo'jaligida suvni tejaydigan texnologiyalarni joriy etishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga asosan hududlarda suvni tejovchi texnologiyalarni joriy qilishning parametrlari va yo'nalishlari ishlab chiqilgan hamda joriy qilib borilmoqda. 2017 yilda respublikada suvni tejovchi texnologiyalar joriy qilingan maydonlar jami sug'oriiladigan yer maydonlarining ulushi 3 foizni

¹ Д. Юинг-Чоу. Управление водными ресурсами станет одним из важнейших трендов в сфере продовольствия в 2024 году. <https://www.forbes.com/sites/daphneewingchow/2023/10/29/water-stewardship-will-be-one-of-the-biggest-food-trends-in-2024/>.

² <https://thewaterinstitute.org/>.

tashkil qilgan bo'lsa, hozirda 4,3 mln gektar sug'oriladigan maydonlarning 1,2 mln gektarida, ya'ni ularning ulushi 28 foizga teng maydonlarda bunday texnologiyalar qo'llanmoqda¹. Suv tejovchi texnologiyalardan eng samarali joriy qilayotgan hududlar Xorazm, Navoiy, Buxoro, Samarqand, Farg'ona, Andijon va Jizzax viloyatlari bo'lsa, eng kam joriy qilingan hududlar – Qashqadaryo, Surxondaryo, Toshkent, Sirdaryo viloyatlari va Qoraqalpog'iston Respublikasidir (4.3-jadval).

4.3-jadval.

O'zbekiston Respublikasi mintaqalarida suvni tejovchi texnologiyalarning joriy qilinganligi, 2023 yil²

№	Hudud nomi	Maydon, ga his.	Maydoni, % his.
1	Xorazm viloyati	139042	52
2	Navoiy viloyati	50425	41
3	Jizzax viloyati	109416	36
4	Buxoro viloyati	95054	35
5	Andijon viloyati	91857	34
6	Farg'ona viloyati	116154	32
7	Samarqand viloyati	115706	30
8	Namangan viloyati	81949	29
9	Surxondaryo viloyati	79430	24
10	Sirdaryo viloyati	67001	23
11	Toshkent viloyati	89468	22
12	Qoraqalpog'iston Respublikasi	110683	22
13	Qashqadaryo viloyati	82052	16

Hozirda dunyoning ko'plab davlatlarida suvdan foydalanishda, uni barqaror boshqarishda innovatsion, noan'anaviy usullar keng joriy qilinmoqda. Masalan oziq ovqat chiqindilaridan suv olish, sanoatda va maishiy sohada yuzaga kelgan oqava suvlardan texnik va ichimlik suvi olish, atmosferadagi namlikdan suv olish shular jumlasidan. Avstarliyaning Aqua Botanical kompaniyasi 1 tonna chiqindi sifatida tashlanishi ko'zda tutilgan sabzidan 74 xil mineralga ega bo'lgan 600 litr suv olish texnologiyasiga ega. Birlashgan Arab Amirliklarida tayyorlanadigan Hawa ichimlik suvi atmosferadagi namlikdan olinadi. S&P Global ma'lumotlariga ko'ra jahonning oziq ovqat va ichimlik suvi ishlab chiqaruvchi kompaniyalarining 45 foizi barqaror qishloq xo'jaligini qo'llab-quvvatlash majburiyatini olishgan, ularning 85 foizi esa o'z faoliyatida suv iste'molini qisqartirish dasturlarini joriy qilishgan³.

Jahon amaliyotida oqava suvlarni biologik usullarda (turli o'simliklar a mikroogrnaizmlar yordamida) tozalash kenga tarfalib bormoqda. Tailandning *Xat Yai* kichik shaharchasidagi markaziy oqava suvlarni tozalashda Lotus (*Nelumbo nucifera*) va Gidrilla (*Hydrilla verticillata*) suv o'simliklaridan foydalanish, Malayziyaning maishiy korxonalaridan chiqadigan oqava suvlarni *Eichhornia crassipes* o'simligi yordamida tozalash, Misrning sanoat shaharlarida joylashgan yog'och mebellari ishlab chiqarish fabrikasidan chiqadigan oqava suvlar faollashtirilgan loyqa, ya'ni maxsus mikroorganizmlar yordamida biologik usulda tozalash, Janubiy Afrikaning Fort-Xare universiteti olimlari oqava suvlarni aerob va anaerob usullardan tozalash bo'yicha, Rossiyaning Amur viloyatida oltin ishlab chiqarish zavodlarining oqava suvlarini tozalashda Ryaska (*Lemna minor* L.) o'simligi yordamida tozalash, Ukraina milliy texnik universiteti olimlari oqava suvlarni o'zlarining an'anaviy tozalash texnologiyalaridan tashqari aerob va anaerob usullarda tozalash, Qirg'izistonda shaharlardagi kanalizatsiyasidan chiqadigan oqava suvlarni kichik ryaska (*Lemna minor* L.) o'simligini o'stirish orqali tozalash,

¹ O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligi ma'lumotlari.

² O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligi ma'lumotlari asosida muallif tuzdi.

³ Д. Юинг-Чоу. Управление водными ресурсами станет одним из важнейших трендов в сфере продовольствия в 2024 году. <https://www.forbes.com/sites/daphneewingchow/2023/10/29/water-stewardship-will-be-one-of-the-biggest-food-trends-in-2024/>.

Qozog'istondagi parrandachilik korxonalarida ifloslangan oqava suvlarni xlorella (*Chlorella vulgaris* Beij) yordamida tozalash usullari ilmiy asoslangan va amaliyotga joriy qilingan¹.

O'zbekistonda ham suvdan noan'anaviy, innovatsion usullarda foydalanish uchun katta imkoniyatlar mavjud. Ayniqsa, sanoat va qishloq xo'jaligida yuzaga kelayotgan oqava suvlarni biologik qayta ishlab, ulardan ichimlik va texnik suv olish bo'yicha respublika olimlari qator ishlarni amalga oshirib, ilmiy natijalarga erishishgan va ularning natijalaridan amaliyotda foydalanilmoqda.

Buxoro viloyatidagi sanot va ishlab chiqarish korxonalaridan hosil bo'ladigan oqava suvlarni mikroorganizmlar, tuban va yuksak suv o'simliklari yordamida laboratoriya va yarim ishlab chiqarish sharoitida tozalash S.B. Bo'riev, Yo.Q. Hayitov, N.E. Rashidov, M.I. Mustafaevalar tomonidan tahlil qilib kelingan. Buxoro viloyatida yuksak suv o'simliklarini o'rganish borasida H.Q. Esanov tomonidan tadqiqotlar olib borilgan. Tadqiqotlar natijasida mazkur hududda 11 tur yuksak suv o'simliklari aniqlangan².

Yuqoridagi tajribalar va ishlab chiqilgan ilmiy takliflarni inobata olgan holda muallif O'zbekiston mintqalarida suvdan samarali foydalanishning maqbul varianti sifatida xo'jaliklarda suvning vaylanma siklli foydalanish usulini joriy qilishni, bunda viloyatlar kesimida suvni qayta ishlovchi xo'jaliklar tashkil etishni taklif qiladi. Bunda oqava suvlar foydalanib bo'lingach, maxsus rezervuarlarda biologik usulda tozalanadi va texnik suv sifatida sanoatda foydalanish mumkin, yoki qo'shimchasiga kimyoviy usulda tozalanib, qayta ishlov berilgach, ichimlik suvi sifatida ham foydalanish mumkin.

Bunday usulning iqtisodiy samaradorligi ham toza sug'orish suvi yoki ichimlik suvini iste'moli xarajatlaridan dastlabki hisob kitobga ko'ra 1,5-1,7 barobar bo'lishi taxmin qilinmoqda, biroq bu holatni kelgusida suv tanisligining umumiy ekologik va ijtimoiy yo'qotishi oldida samarali hisoblash mumkin.

Oziq-ovqat xavfsizligi masalasini yashil iqtisodiyotga o'tish sharoitida ikkita yo'nalishda tushiniladi: birinchidan, hududlarning oziq-ovqat bilan ta'minlanishining xavfsizligini ta'minlash, ikkinchidan, insonlarning sog'lom turmush tarzi talablari ortib borayotganligi fonida ekologik va tibbiy sog'lom mahsulotlar bilan ta'minlanishi masalasi talqin qilinadi.

Yashil iqtisodiyotga o'tish tabiiy kapitalning muhimligini va uning dolzarbligini namoyon qiladi. Qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat mahsulotlarining ekologik sofliqi talabi bu mahsulotlarini yetishtirish va qayta ishlash jarayonlarining, butun ishlab chiqarish zanjirining ekologik sofliqini talab qiladi.

O'zbekistonda qishloq xo'jaligini samarali, barqaror rivojlantirish, sohada ishlab chiqarishini oqilona tashkil etish mamlakatdagi 2 ta eng asosiy muammolarni yechishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Birinchi masala –mintaqalarida qishloq xo'jaligini yanada samarali rivojlantirish asosida kambag'allikni kamaytirish, ikkinchi masala – oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash. Respublika mintaqalarida iqtisodiyot tarmoqlarini, jumladan, qishloq xo'jaligini «yashil iqtisodiyot» tamoyillari asosida shakllantirish va rivojlantirish uchun katta imkoniyatlar mavjud.

O'zbekistonda "Qishloq xo'jaligini rivojlantirish strategiyasi"³ qabul qilinganidan so'ng qishloq xo'jaligi sohasida qator islohotlar amalga oshirib kelinmoqda. Jumladan, 2020 yildan boshlab paxta xom-ashyosiga, 2022 yildan boshlab bug'doyga davlat buyurtmasining bekor qilinishi, shuningdek paxta xom-ashyosi yig'im-terimida majburiy mehnatning bekor qilinishi, bozor mexanizmlariga o'tilgani shular jumlasidan. O'zbekiston mahalliy, mintaqaviy va global bozorlarda Koronavirus pandemiyasining oqibatida narxlarning nobarqaror va noaniq bo'lishiga qaramasdan mamlakatda qishloq xo'jaligi sohasidagi islohotlarni ishonchli tarzda davom ettirdi.

¹ Yuldoshev L.T. Ishlab chiqarish va qishloq xo'jalik korxonalarida oqava suvlarini tozalashning biotexnologik asoslari. Biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. Buxoro 2022. – 125 b.

² Yuldoshev L.T. Ishlab chiqarish va qishloq xo'jalik korxonalarida oqava suvlarini tozalashning biotexnologik asoslari. Biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. Buxoro 2022. – 125 b.

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 23 oktyabrda "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020 - 2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5853 sonli Farmoni. <https://lex.uz/docs/4567334>.

So'nggi yillarda paxta (23,5%) va uzum (14,1%) hosildorligining oshgani kuzatilgan bo'lsada, ayrim qishloq xo'jalik ekinlari, jumladan, poliz ekinlari – 17,6%ga, sabzavotlar – 14,3%ga, don uchun makkajo'xori – 6,1 %ga, kartoshka – 2,6%ga hosildorligi pasaygan. Bunga asosiy sabablar sifatida iqlim anomaliyalari, shuningdek, qurg'oqchil va issiq yoz oylarining muddati uzayayotganini ko'rsatamiz.

So'nggi yillarda mamlakatda oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishni barqarorlashtirishda tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Paxta ekinidan bo'shagan maydonlarda ko'p yillik ekinlar, jumladan, bog'lar va uzumzorlar barpo etilmoqda. 2016 yilda 349200 ga maydonda meva va uzum (jami ekin maydonlarining 9,4%i) yetishtirilgan bo'lsa, 2019 yilda bunday ekinlar 456800 ga, 2021 yilda 495700 ga maydonda yetishtirilgan. Shu bilan birga, ko'p yillik kam hosilli bog'lar yuqori hosil beruvchi, intensiv bog'larga almashtirilmoqda. Mazkur o'zgarishlar mamlakatda oziq-ovqat sohasida mustahkam asosni shakllantirishga xizmat qilmoqda.

Oziq-ovqat sohasida islohotlarni amalga oshirishda, qishloq xo'jaligi ekinlarini yetishtirish va qayta ishlash texnologiyalarini ham takomillashtirishga katta e'tibor berilmoqda. 2020-2021 yillarda respublikada paxtachilik va meva-sabzavotchilik yo'nalishida suvni tejovchi texnologiyalarni joriy qilishda qator ishlar amalga oshirildi. Jumladan, respublika byudjetidan paxtachilikda 2019 yilda – 120 mlrd so'm, 2020 yilda – 132 mlrd so'm, 2021 yilda – 199 mlrd so'm, meva-sabzavotchilikda 2020-2021 yillarda 90 mlrd so'm mablag' suvni tejovchi texnologiyalarni joriy qilishga yo'naltirilgan.

Shuning bilan birga, mazkur yo'nalishda huquqiy asoslar ham takomillashtirib borildi. Jumladan, intensiiv bog'larga suv tejovchi va boshqa texnologiyalarni investitsiya paketiga qo'shish talablari kiritildi. Olib borilgan ushbu tadbirlar natijasida suv tejovchi texnologiyalar qo'llangan sug'oriladigan yerlar maydoni 2017 yildagi 3 % dan 2024 yilda 28 % gacha oshdi.

Global Food Security Index (GFSI) reytingida O'zbekiston 2019-2021 yillarda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha eng tez rivojlangan top 10 davlatlar ro'yxatida 1-o'rinni egalladi. Ushbu ro'yxatda mamlakat 2019 yildagi 85-o'ringdan 2021 yilda 75 o'ringa ko'tarildi va o'z reytingini 6,1 ballga yaxshilab olgan (4.3- jadval).

4.3-jadval

Global Food Security Index (GFSI) bo'yicha 2019-2022 yillarda oziq-ovqat xavfsizligi bo'yicha eng yuqori rivojlanishga erishgan mamlakatlar¹

Egallagan o'rni	Mamlakat	2019 yil	2022 yil	Faq
73	O'zbekiston	51,4	57,5	+ 6,1
= 41	Saudlar Arabistoni	65,0	69,9	+ 4,9
29	Bolgariya	68,2	73,0	+ 4,8
88	Ruanda	47,0	50,6	+ 3,6
58	Gvatemala	59,7	62,8	+ 3,1
=108	Madagaskar	37,6	40,6	+ 3,0
54	Argentina	62,3	64,8	+ 2,5
18	Kosta Rika	74,9	77,4	+ 2,5
71	Ukraina	55,5	57,9	+ 2,4
4	Fransiya	77,9	80,2	+ 2,3

Xulosa. O'zbekiston, xususan, Buxoro viloyatida mintaqani barqaror rivojlantirish uchun qishloq xo'jaligining quyudagi shakllangan hududiy jihatlarini inobatga olinishi zarur:

- Qishloq xo'jalik yerlari unumdorligini oshirishni rag'batlantirish tizimlarini yo'lga qo'yish talab etiladi;

- Past hosilli yerlarda paxta va bug'doy yetishtirishni bosqichma-bosqich kamaytirish va ushbu ekinlardan bo'shagan maydonlarga sabzavot va ko'p yillik o'simliklar ekishni tatbiq etish lozim;

¹ <https://impact.economist.com/sustainability/project/food-security-index> ma'lumotlari asosida tuzildi.

- Tomorqa xo'jaligi va kichik qishloq xo'jalik ishlab chiqaruvchilarining mahsulot ishlab chiqarish va daromad olish salohiyatini oshirish uchun moliyaviy va boshqa resurslar bilan ta'minlash, shuningdek, ichki va tashqi bozorlar, hamda xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish talab etiladi;

- Ehtiyojga mos yangi texnologiyalar asosida intensiv bog'lar va oziq-ovqat ekinlari yaratish uchun eskirgan bog'lar va uzumzorlarni bosqichma-bosqich zamonaviylashtirish. Shuningdek, 2030 yilga qadar intensiv bog'larning ulushini 50 foizga yetkazish orqali hosildorlikni kamida 3-4 barobarga oshirish imkoniyati mavjud;

- Har yili 200 ming gektar maydonda ekinlar uchun suvni tejamkor sug'orish texnologiyalarini joriy qilish rejalashtirilgan, bu o'z navbatida qishloq xo'jalik ekinlarining samaradorligini sezilarli darajada oshirishga sabab bo'ladi;

- Qishloq aholisi daromadlarini oshirish va sog'lom ovqatlanish tarzi uchun qulay tabiiy-ekologik, ijtimoiy-iqtisodiy imkoniyatlar mavjud bo'lib, ulardan samarali foydalanish darajasi juda past, ularni oshirish talab etiladi;

- Biologik xilma-xillikka bo'lgan yuk yil sayin ortib bormoqda, ularni kamaytirish va hosildor landshaftlarda mavjud komponentlardan keng foydalanishni rag'batlantirish mexanizmlarini kuchaytirish talab etiladi.

Ushbu tadbirlar Buxoro viloyatida qishloq xo'jaligini zamonaviy texnologiyalar asosida takomillashtirishga yo'naltirilgan. Xulosa qilib ta'kidlaymizki, qishloq xo'jaligi mamlakatda va uning aksariyat mintaqalarida iqtisodiyotning yetakchi tarmog'i sifatida muhim ahamiyatga ega, jumladan, yashil iqtisodiyotga o'tishda ham. Bunda qishloq xo'jaligi ko'pgina tarmoqlarning xom ashyo manbai, yo'ldosh tarmog'i sifatida iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarini, mamlakat hududlarining yashil iqtisodiyotga o'tishi yo'nalishlarini, uning darajasini, tezligini belgilab berishda muhim o'rin tutadi.

Xulosa shuki, mintaqalarga yashil iqtisodiyotni joriy qilishda agrar tarmoq lokomotiv sifatida xizmat qiladi, boshqa tarmoqlarning ham yashillashuvini belgilab beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 23 oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020 - 2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5853 sonli Farmoni. <https://lex.uz/docs/4567334>.
2. Веко А.А. «Зеленое» сельское хозяйство как основа продовольственной безопасности. КИЕ, 2015. 01. - С. 35. https://ifmr.uz/publications/articles-and-abstracts/agricultural_product
3. Иминов Т.К., Вахобов А.В. и др. "Зелёная экономика" как основа устойчивого развития. Монография. -Т: 2019. "Алокачи", 480 – с. ;
4. Rothschild M. (1990). Bionomics: economy as ecosystem. New York: Henry Holt and Company. 423 p. Moore J. (1996). The Death of Competition: Leadership and strategy in the age of business ecosystems. New York: Harper Business. 320 p.
5. Руководство по устойчивому ведению сельского хозяйства для новичков. <https://www.unep.org/ru/novosti-i-istorii/istoriya/rukovodstvo-po-ustoychivomu-vedeniyu-selskogo-khozyaystva-dlya-novichkov>.
6. Yuldoshev L.T. Ishlab chiqarish va qishloq xo'jalik korxonalari oqava suvlarini tozalashning biotexnologik asoslari. Biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertasiya. Buxoro 2022. – 125 b.
7. Юинг-Чоу Д.. Управление водными ресурсами станет одним из важнейших трендов в сфере продовольствия в 2024 году. <https://www.forbes.com/sites/daphneewingchow/2023/10/29/water-stewardship-will-be-one-of-the-biggest-food-trends-in-2024/>.
8. Yavmutov D.Sh., Sharapova N.K. Green factor of economic growth in Uzbekistan Gospodarka i innowacje. ISSN: 2545-0573. Volume: 23/2022 – P. 102-104. <http://www.gospodarkainnowacje.pl/index.php/poland/article/-download/324/301>.
9. <https://impact.economist.com/sustainability/project/food-security-index>.
10. <https://thewaterinstitute.org/>.